

Ilhom Sodiqov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrası dotsenti
E-mail: Ilhomsodiqov1972@gmail.com*

O'ZBEKISTONDA BO'LISHI MUMKIN BO'LGAN XALQARO FESTIVALLAR : ILMIY-NAZARIY TAHLIL VA STRATEGIK ISTIQBOLLAR

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning global madaniy-intellektual makondagi o'rnini yanada kuchaytirish maqsadida tashkil etilishi mumkin bo'lgan xalqaro festivallar konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Jahon festivallar industriyasidagi tendensiyalar, turizm iqtisodiyoti nazariyasi, madaniy diplomatiya modeli va kreativ industriyalar rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, festivallarning mamlakat brendini, iqtisodiy o'sish va madaniy kapitalni shakllantirishdagi roli (Bourdieu, Florida, Richards modellari) atroflicha yoritilgan.

Kalit so'z: festival, innovatsiya, hunarmand, gastronomik, ekoturizm, etnografiya, kreativ, industriya, kinoturizm, global madaniyat.

INTERNATIONAL FESTIVALS THAT COULD BE HELD IN UZBEKISTAN: A SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS AND STRATEGIC PROSPECTS

Abstract. The article scientifically substantiates the concept of international festivals, which can be organized in order to further strengthen Uzbekistan's position in the global cultural and intellectual space. Trends in the World Festival industry, the theory of Tourism Economics, the model of cultural diplomacy and the dynamics of the development of creative industries are analyzed. Also, the role of festivals in country branding, economic growth and cultural capital formation (Bourdieu, Florida, Richards models) is covered in detail.

Keyword: festival, innovation, craft, gastronomy, ecotourism, ethnography, creative, industry, film tourism, global culture.

XXI asrda davlatlar faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki “madaniy kapital” va “milliy brend” vositasida ham raqobatlashmoqda [1, 10-b]. Bugungi kunda festivallar mamlakatlarning xalqaro maydonda ko‘rinishini oshirish, turistik oqimlarni jalb qilish, kreativ iqtisodni rag‘batlantirish va madaniy diplomatiyani kuchaytirishning samarali vositasiga aylangan.

O‘zbekiston keyingi yillarda xalqaro festivallar soni va formatini kengaytirib, Markaziy Osiyoda madaniy markaz sifatida shakllanib bormoqda. “Sharq taronalari”, “Baxshichilik”, “Hunarmandchilik”, “Raq’s” festevallari kabi loyihalar bu jarayonning muvaffaqiyatli namunasidir. Biroq global madaniyat siyosati tendensiyalarini hisobga olgan holda, respublikada yana bir qator strategik ahamiyatga ega festivallarni tashkil etish maqsadga muvoffiq bular edi. Ular quyidagilardan iborat:

Xalqaro ilm-fan va texnologiya festivali – bu innovatsiya ekotizimini kuchaytirishga qaratilgan harakat bo‘lib uning nazariy asoslari, innovatsion rivojlanish konsepsiyalariga ko‘ra ilm-fan, ta’lim, biznes va jamiyat o‘rtasida “milliy innovatsiya tizimi” yaratishi zarur deb o‘ylayman. Festival bu tizimning interaktiv platformasi sifatida xizmat qiladi. Bu festivalni O‘zbekiston uchun ahamiyatli tomoni shundaki, IT-sektor va startap ekotizimini jadal o‘stirada; rezidentlik tizimi, texnoparklar, yoshlar innovatsion markazlari barpo etiladi. Xalqaro texnologiya festivali orqali global venchur investorlarini jalb qilish, startaplar eksportini rivojlantirish, Markaziy Osiyoda texnologiyalar markazi maqomini mustahkamlashga qaratilgan global harakatga aylangan bo‘lar edi. Jahon tajribasiga bir nazar tashlasak. CES (AQSH), WebSummit (Portugaliya), VivaTech (Fransiya) shu kabi mamlakatlarda o‘tkaziladigan festivallar har yili milliardlab dollar iqtisodiy foyda keltiradi. O‘zbekistonda shunga o‘xshash festivalning tashkil etilishi mamlakat innovatsiyasiga sezilarli turtki beradi [2, 3-b].

Xalqaro gastronomik festival bu – mamlakatda pazandachilik san’ati, turizm va agroiqtisodiyotni rivoji uchun keng ko‘lamli global harakat bo‘lib, uning nazariy asoslari quyidagilardan iborat: milliy taomlar mamlakat brendining muhim

elementi hisoblanadi. UNWTO tadqiqotlariga ko'ra, gastronomik turizm sayohatchilarning qaror qabul qilishining 35–50% ga ta'sir qilar ekan [5, 33-b]. O'zbekiston oshxonasi – palov, somsa, lag'mon, non mahsulotlari, ko'k choy madaniyati mintaqadagi eng boy gastronomik meroslardan biridir.

Bizda ushbu festival orqali agrosanoat mahsulotlari eksporti kengayadi, “food turizm” marshruti yaratiladi, milliy brend qadri oshadi. Mamlakatimizda pazandachilik san'atiga e'tibor yanada kuchayadi. Mamlakatning kulinar diplomatiyasini shakllantiradi.

Jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak, bunday festivallar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, ya'ni Italiyada “Terra Madre”, Turkiyada “Gastro Antalya”, Yaponiyada “Osaka Food Expo” xalqaro kulinariya festivallari mamlakatga o'n minglab turistlarni jalb qiladi.

Xalqaro ekoturizm va etnofolklor festivali – barqaror turizm modeli bo'lib, uning nazariy asoslari: ekologik muhofaza, mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash va tabiatni saqlashga asoslanadi. O'zbekistonning salohiyati yetarli, Nurota, Chimyon, Zomin, Ustyurt, Surxon, Chotqol tog' tizmalari kabi olis qishloqlari ekoturizm uchun qulay hududlar mavjud. Eko turizm va etnofolklor festivalida etnoqishloqlar, milliy sport turlari, folklor an'analari, ekologik ma'rifat tushunchasi bilan sug'orilgan kuy va qo'shiqlar o'rin oladi. Jahon tajribasiga bir nazar soladigan bo'lsak Koreyada “World Eco Festival”, Kanadada “Eco-Expo”, Qozog'istonda “Nomad Festival”. O'zbekistonda bu yo'nalishdagi festival Markaziy Osiyoda yetakchi etnoekoturizm markazini yaratadi. U esa o'z vaqtida ajdodlar merosini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xalqaro kinoturizm va kreativ industriya festivali

Uning nazariy asoslaridan biri bu kreativ iqtisod. U davlatning innovatsion o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatib kino sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro kinoturizm va kreativ industriya festivalining O'zbekiston uchun ahamiyatli tomoni, uning yildan-yilga kinolokatsiyalar, kinoprodakshnlr va prodyuserlik markazlarining paydo bo'lib, respublikada kinoturizm salohiyatini

kuchaytirib kelmoqda. Tarixiy filmlar va xalqaro qo'shma loyihalar uchun yaratiladigan pavilonlar, shaharchalar turistlarda qiziqish uyg'otib o'zbek kino sanoatini jahon bozoriga chiqishiga zo'r turtki bo'ladi. Jahon amaliyotidan bizga ma'lumki, Kann, Toronto, Karlovi-Vari, Los-Anjeles kinofestivallari o'z mamlakatlariga milliardlab investitsiya, turizm oqimi, global mediata'sir olib keladi.

O'zbekistonda shu ko'lamli kinofestival tashkil etilishi milliy kino sanoati eksportini kengaytirishi mumkin.

Xalqaro elektron musiqa va zamonaviy estrada san'at festivali – bu kreativ yoshlar makoni bo'lib, unda Digital Art va EDM (electronic dance music) festivallari “kreativ yoshlar iqtisodi”ni shakllantiradi. Festivalni O'zbekistonda o'tkazish uchun imkoniyat yetarli. Yoshlar soni katta, digital-art, dizayn, grafika, IT-yo'nalishdagi mutaxassislar ko'paymoqda. Elektron san'at festivalida multimediya, AR/VR texnologiyalari, didjeylik, raqamli installyatsiyalar, dronlar shousi estrada san'ati kabi yo'nalishlarni birlashtirgan innovatsion madaniy platforma bo'ladi.

O'zbekistonning madaniy siyosati, turizm iqtisodi va kreativ industriyalarini rivojlantirish istiqbollari mamlakatda yangi turdagi yirik xalqaro festivallarni tashkil etish uchun mustahkam asos yaratadi. Taqdim etilgan festivallar milliy brendni mustahkamlaydi, xalqaro turistik oqimni oshiradi, innovatsion va kreativ iqtisodni jadallashtiradi, madaniy diplomatiya vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. *Abduraxmonov Q. O'zbekiston turistik salohiyati va madaniy merosni rivojlantirish masalalari.* – Toshkent: Fan, 2021. – 77 b.
2. *Karimov S. Cultural Diplomacy in Central Asia.* – London: Routledge, 2020. – 305 b.
3. *UNWTO. Gastronomy Tourism Report.* – Madrid: Spain, 2021. – 120 p.

4. UNESCO. *Intangible Cultural Heritage and Sustainable Development*. – Paris: Routledge, 2020. – 222 p.
5. Florida R. *The Rise of the Creative Class*. – New York: Basic Books, 2019. – 400 b.
6. Bourdieu P. *Cultural Capital and Social Theory*. – Cambridge University Press: SAGE Publications, 2018. – 200 p.
7. AFCNet. *Asian Film Industry Development Review*. – Seoul: South Korea, 2022. – 80 p.
8. Howkins J. *The Creative Economy*. – London: Penguin, 2020. – 304 p.
9. European Digital Art Observatory. *Global Digital Art Trends*. – Berlin, Germany, 2023. – 90 p.